

## МА'NAVIY YANGILANISH IMKONIYAT VA ISTIQBOLLAR.

*Chirchiq davlat pedagogika universiteti Gumanitar fanlar fakulteti  
Po'latov Ro'zimurod Farhod o'g'li  
[polatovrozimurod6@gmail.com](mailto:polatovrozimurod6@gmail.com)*

**Annotation.** Ushbu maqolada yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi doirasida amalga oshirilayotgan ma'naviy-marifiy islohotlar va ularning jamiyat hayotidagi o'rni hamda O'zbekistonning jahon hamjamiyatidagi ma'naviy yuksalishidagi amaliy ishlari va takliflari yoritilgan.

**Kalit so'zlar.** Yangi O'zbekiston, strategiya, barqarorlik, ma'naviy yangilanish, marifat, ma'naviy-marifiy ishlar, taraqqiyot.

Yangi O'zbekiston taraqqiyotining hozirgi rivojlanish bosqichida ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy omillar bilan birga, ma'naviy-marifiy jabhalarda amalga oshirilayotgan islohotlar ham muhim ahamiyatga ega ekanini yaxshi bilamiz. Iqtisodiyotni jamiyat hayotining tanasi deb hisoblasak, uning joni va ruhi ma'naviyatdir. Yangi O'zbekistoni barpo etishda biz ana shu ikkita mustahkam ustunga, bozor tamoyillariga asoslangan kuchli iqtisodiyotga hamda ajdodlarimizning boy merosi, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga asoslangan kuchli ma'naviyatga tayanmog'imiz lozim. Ma'naviyat biz uchun insonlar o'rtasidagi o'zaro ishonch, hurmat va e'tibor, xalq va davlat kelajagini birlgilikda qurish yo'lidagi eng ezgu intilishlar, ibratli fazilatlar jamlanmasidir. Ma'naviyat jamiyatdagi barcha siyosiy-ijtimoiy munosabatlarning mazmun va sifatini belgilab beradi desak ham to'g'ri bo'ladi. Ma'naviyatimiz qancha kuchli bo'lsa, xalq ham, davlat ham shuncha kuchli bo'ladi. Ayniqsa, Prezidentimiz Sh.Mirziyoyevning 2017-yil 19-sentabrda BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida so'zlagan nutqlarida, butun jahon hamjamiyatini bugun insoniyat ma'naviyatini yuksaltirish zarurati har doimgidan ko'ra dolzarb ahamiyatga ega ekaniligini ta'kidlab o'tdilar. Davlatimiz rahbari ayni paytda xalqaro terrorizm va ekstremizm kabi jahonga xavf solayotgan global masalalarni kuch ishlatish yo'li bilan emas, aksincha, yoshlarning ongu tafakkurini ma'rifat asosida shakllantirish va ularni tarbiyalash orqali bartaraf etish lozimligi haqida so'zlab, sessiya qatnashchilariga BMT Bosh Assambleyasining "**"Ma'rifat va diniy bag'rikenglik"**" deb nomlangan maxsus rezolyutsiyasini qabul qilish taklifini bildirgandi.

Mamlakatimizni rivojlantirish bo'yicha qabul qilingan Taraqqiyot strategiyasida belgilab berilgan ustuvor vazifalar O'zbekistonning yangi Renessansiga yangi Uyg'onish davriga mustahkam poydevor bo'lishi lozim. Ana shu ma'noda 2021-yil 19-yanvar kuni O'zbekiston respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev raisligida

bo‘lib o‘tgan Respublika Ma’naviyat va ma’rifat Kengashining ilk yig‘ilishi mamlakatimiz taraqqiyotida yangi burlish davrini boshlab berganligini alohida ta’kidlab o‘tmoq darkor. Unda ma’naviy-ma’rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish, bu borada davlat va jamoat tashkilotlari hamkorligini mustahkalash, Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazining muvofiqlashtiruvchi rolini kuchaytirish, sohada ilmiy yondashuvni keng joriy etish, ilg‘or tashabbuslarni qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha aniq choralar belgilab berilgandi. Mafkuraviy ishlar borasida davr talablarini o‘zida mujassam etgan yo‘nalishlar asosida qabul qilingan 2021-yil 26-martda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining **“Ma’naviy-ma’rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”**, va **“Ma’naviyat va ijodni qo‘llab-quvvatlash maqsadli jamg‘armasini tashkil etish to‘g‘isida”** qarorlari, 2021-yil 3-iyunda Vazirlar Mahkamasining “Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi huzuridagi Ijtimoiy-ma’naviy tadqiqotlar instituti faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida” gi qarori O‘zbekistonda ma’naviy-ma’rifiy ishlarni tizimli yo‘lga qo‘yish, muvofiqlashtirish borasida yangi yo‘nalishlarni yaratishga asos bo‘lib hizmat qildi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining **“Ma’naviy-ma’rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”** gi qarori asosida barcha vazirlik va idoralarda ma’naviyat va ma’rifat kengashlari tuzildi. Mazkur kengashlar faoliyatini muvofiqlashtirib borish bo‘yicha ikki tomonlama **“Yo‘l xarita”** lari ishlab chiqilib, ma’naviy-ma’rifiy ishlarning yangi tizimi amal qila boshladи.

Barchamizga yaxshi ayonki, hozirgi globallashuv davrida butun dunyoda barcha sohalarda keskin kurash va raqobat tobora ayovsiz tus olmoqda. Ayrim davlatlar, siyosiy markazlar tomonidan boshqa mamlakatlarni o‘z ta’sir doirasiga olish, ozodlik ruhini sindirish, mustaqilligini tizginlash, ayniqsa, yoshlarning ongu tafakkurini egallash orqali taraqqiyot va barqarorlik, milliy birlik va hamjihatlik ildizlariga bolta uruvchi manqurtlarga aylantirmoqda. Bu yo‘lda havoyi yorliqlar yopishtirilgan yolg‘on va puch da’volar asosida turli usul va vositalarni qo‘llashga, juda katta kuch, mablag‘ va imkoniyatlarini safarbar etishmoqda. Mana shunday murakkab sharoitda milliy o‘zligiga ega bo‘limgan, ma’naviy hamjihatlikka erishmagan mamlakat, jamiyat, moddiy va ma’naviy boyliklarini, eng yomoni, mustaqilligini boy berib qo‘yishi ham hech gap emas. Bunga o‘tmishdan ham, bugungi kunimizdan ham istagancha misollar keltirish mumkin. Ana shunday sharoitda targ‘ibotning tezkor, zamonaviy usullaridan foydalanmasdan maqsadga erishish qiyin. Targ‘ibotning ilmiy asoslangan zamonaviy texnologiyalari va yangi shakllarini, taxdidlarga qarshi samarali kurash usullarini ishlab chiqib qo‘llash vaqtি keldi. Ma’naviy targ‘ibotni to‘g‘ri yo‘lga qo‘yishda ommaviy axborot vositalari katta ta’sir kuchiga ega hisoblanadi. Bu kuchdan esa samarali foydalanishimiz zarur.

Miliy ma’naviyatimizni rivojlantirish, uni xalqimiz ayniqsa yoshlarning hayotiga singdirishda ijtimoiy-gumanitar fanlarning ahamiyati va o‘rni katta. Ming

afsuski, hozirgi vaqtida ushbu fanlar rivoji, ular mansub ilmiy-amaliy va ta'lim-tarbiyaviy tizimi yangilash va optimallashtirish jarayoni zamondan ortda qolmoqda. Bugungi kunda biz aholi, va ko‘proq yoshlarimizga zamonaviy ta’lim-tarbiya bilan birgalikda qon-qonimizga singgan muqaddas dinimizning mohiyatini to‘g‘ri tushuntirib berish, ularni ezgu g‘oyalar ruhida tarbiyalash haqida jiddiy yondoshishimiz zarur. Ma’naviyatsizlik va g‘oyasizlik har qanday millatni tanazzul sari yetaklashi, davlat siyosati va boshqaruvini kuchsizlantirishi, jinoyatchilik va axloqsizlik, korrupsiya kabi illatlarning ildiz otishiga sabab bo‘lishi bilan bog‘liq misollarni tarixdan ko‘plab keltirib o‘tish mumkin. Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasida ushbu illatlarning oldini olish uchun ham ma’naviy-ma’rifiy islohotlarga alohida e’tibor qaratilgan. O‘z navbatida ilm-fan, madaniyat, va san’at, adabiyot va badiiy ijod sohalarining ma’naviy-ma’rifiy taraqqiyotdagi ta’sirchanligini oshirish zarur. Barcha hududlarimizda ijodkor ziyoililarga doimiy e’tibor qaratish, ularga moddiy va ma’naviy jihatdan rag‘batlar berish, qo‘llab-quvvatlash borasida olib borilayotgan ishlar ma’naviy-ma’rifiy sohadagi siyosatimizning muhim yo‘nalishlaridan biri bo‘lishi lozim. Davlatimiz rahbari tomonidan yuritilayotgan yangi va pragmatik siyosat asosida ma’naviyat va ma’rifat sohasi xolis va tanqidiy baholanib, oldimizda turgan dolzarb vazifa va amalga oshirilayotgan ishlarga alohida e’tibor qaratib kelinmoqda. Bu haqida Prezident Sh.Mirziyoyevning O‘zbekiston ijodkor ziyoililari vakillari bilan uchrashuvlaridagi ma’ruzalarida quyidagilarni ta’kidlab o‘tgan edilar, ma’naviy hayotimizni yanada rivojlantirish maqsadida keyingi paytda bir qancha muhim hujjatlar, jumladan, kitobxonlik madaniyatini oshirish, madaniyat va san’at sohasini takomillashtirish, hududlarda ulug‘ san’atkorlarimiz nomi bilan ataladigan ijodiy maktab va markazlar tashkil etish to‘g‘risidagi qaror va farmoyishlar ham qabul qilindi. Bu haqda gapirganda, Toshkent shahrida Adiblar xiyoboni bunyod etilgani, u yerda adabiyotimizning buyuk namoyandalariga bag‘ishlab yodgorlik majmualari o‘rnatilgani, shuningdek, Namangan viloyatida ulkan ma’rifatparvar Ibrat domla, Jizzax shahrida atoqli ijodkorlar Hamid Olimjon, Zulfiya va Sharof Rashidov, Xorazm viloyatida otashnafas hofiz Komiljon Otaniyozov, Nukus shahrida O‘zbekiston Qahramoni, Xalq shoiri Ibroyim Yusupov, Farg‘ona, Qashqadaryo va Andijon viloyatlarida Erkin Vohidov, Abdulla Oripov, Muhammad Yusuf xotiralarini abadiylashtirish ishlari olib borilganligini qayd etib o‘tish joiz. Bularning mantiqiy davomi sifatida yosh shoir va adiblar, aktyor, rassom va qo‘shiqchilar, jurnalistlarning iste’dodini yuzaga chiqarish, ularga e’tibor va g‘amxo‘rlik ko‘rsatish borasida ham qator chora tadbirlar amalga oshirib kelinmoqda.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev boshchiligidagi mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli yangilanish va bunyodkorliklar, har bir sohada xalqning roziligidagi erishish maqsadida qat’iyat bilan davom ettirilayotgan islohotlar, nafaqat yurtimiz, balki butun dunyoda yuksak e’tirof etib kelinmoqda. Yangi O‘zbekistonni

barpo etish, Uchinchchi Renessans poydevorini qurish, har bir vatandoshimizning azmu qarori, hayotiy maqsadlarining asosiga aylanmoqda. Davlatimiz rahbari “Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi” kitobida ta’kidlaganlaridek, “Yangi O‘zbekistonni barpo etish u shunchaki xohish-istak, sub’ektiv hodisa emas, balki tub tarixiy asoslarga ega bo‘lgan, mamlakatimizdagi mavjud siyosiy-huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy, ma’naviy-ma’rifiy vaziyatning o‘zi taqozo etayotgan, xalqimizning asriy orzu-intilishlariga mos, uning milliy manfaatlariga to‘la javob beradigan ob’ektiv zaruratdir”. Aynan bugun “Harakatlar strategiyasidan – Taraqqiyot strategiyasi sari” shiori ostida Vatanimizdagi yangilanish va islohotlarning asosiy harakatlantiruvchi kuchi bo‘lgan jamiyatimiz a’zolarining bor bilim va salohiyati, kuch va imkoniyatlari ishga solinib, bu ezgu harakat umumilliy ahamiyat kasb etmog‘i lozim. Ma’lumki, yangi O‘zbekistonni jahon maydonida kuchli salohiyat, munosib obro‘-e’tiborga ega bo‘lgan, har tomonlama obod va farovon mamlakatga aylantirish borasidagi bu harakatda iqtisodiy omil bilan birga ma’naviy omillar ham muhim o‘rin tutadi. Ta’kidlanganidek, “ma’naviyat-insonlar o‘rtasidagi o‘zaro ishonch, hurmat va e’tibor, xalq va davlat kelajagini birgalikda qurish yo‘lidagi ezgu intilishlar, ibratli fazilatlar majmuasidir. “Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi” kitobi, undagi ustuvor maqsad va vazifalar olimlar, adabiyot va san’at vakillari, xotin-qizlar, yoshlar, keng jamoatchilik tomonidan katta qiziqish bilan o‘rganilmoqda. Belgilangan vazifalar ijrosini amalga oshirish bo‘yicha muhim chora-tadbirlar ishlab chiqilmoqda. Prezidentimiz tomonidan asoslab berilgan Taraqqiyot strategiyasining ma’naviy rivojlanish maslalariga qaratilgan 5 ustuvor yo‘nalishiga doir maqsad va vazifalarni bajarish va bunda quyidagi maqsad va vazifalarga alohida ahamiyat qaratilishi zarur.

- Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi asosida ma’naviyat sohasidagi davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlari, keng ko‘lamli islohotlarning mazmun-mohiyatini keng jamoatchilikka yetkazish ishlarini yanada samarali va tizimli tashkil qilish.

- yaqin yillarda mamlakatimizda yangi ma’naviy makonni shakllantirish bo‘yicha ishlar samarasini yuksak darajaga ko‘tarish va bu boradagi faoliyat tizimini yanada takomillashtirish maqsadida “Yangi O‘zbekistonning Ma’naviy taraqqiyot strategiyasi”ni hamda uni amalga oshirish bo‘yicha “Yo‘l xaritasi”ni ishlab chiqish va hayotga joriy etilishini ta’minalash.

- fuqarolarning ezgulik va insonparvarlik g‘oyalari hamda yuksak ma’naviyat tamoyillariga asoslangan sog‘lom dunyoqarashi va zamonaviy tafakurini “Harakatlar strategiyasidan – taraqqiyot strategiyasi sari” g‘oyasi asosida shakllantirishni umummilliy harakatga aylantirish.

- BMTning ko‘plab “Axloq kodeksi”ni mamlakatimiz hayotida qo‘llash va implementatsiya qilish maqsadida “Yangi O‘zbekiston jamiyatining ma’naviyat kodeksi”ni yaratish va uning amaliyotini ta’minalash zarurati ham allaqachon yetilgan.

- “O‘zbekiston Respublikasining ma’naviyat sohasidagi davlat siyosatining asoslari to‘g‘risida” qonunini ishlab chiqish va uni samarali amalga oshirilishini ta’minlash.
- “Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi” kitobi asosida “Yangi O‘zbekistonning ma’naviy taraqqiyot strategiyasi” turkumida kitoblar, lug‘at va risolalar tayyorlash va chop etish ishlarini yo‘lga qo‘yish, shu maqsaddagi ilmiy-tadqiqot va innovatsion loyihalarni amalga oshirish.
- “Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi” kitobining mazmun-mohiyati va uni amalga oshirishning dolzarb vazifalari” mavzusida doimiy faoliyat yuritadigan Respublika onlayn ilmiy-amaliy konferensiyasini tashkil qilish.
- “Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi” kitobining mazmun mohiyatini keng targ‘ib qilish maqsadida barcha davlat va jamoat tashkilotlarida “Harakatlar strategiyasidan – taraqqiyot strategiyasi sari” mavzusida “Ma’naviyat soatlari”ni tashkil qilish.

**Xulosa.** Muxtasar qilib aytganda, ma’naviyatni yangilash, boyitish milliy mustaqillikni mustahkamlashning muhim shartidir. Shu boisdan, Taraqqiyot strategiyasi doirasida amalga oshirilayotgan islohotlarimiz, avvalo, Vatanimiz mustaqilligi, uning ma’naviy asoslarini asrab-avaylash, aholimiz ayniqsa yoshlar ongida milliy-ma’naviy qadriyat, an’alarimizga sodiqlik ruhida tarbiyalash uchun xizmat qiladi. Zero, davlatimiz rahbari Sh.Mirziyoyev ta’kidlaganlaridek, Biz barchamiz – fuqarolar ham, jamiyat ham, davlat ham Vatanimiz ravnaqi uchun, mamlakatimizda tinchlik-barqarorlikni mustahkamlash uchun, tarixiy, ma’naviy va madaniy merosimizni saqlash, boyitish va kelgusi avlodlarga bezavol yetkazish uchun barchamiz birdek mas’ulmiz.

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2022.
2. Mirziyoyev Sh.M. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentlik lavozimiga kirishishiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagি nutqi. 06.11.2021 y
3. Ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish va sohani rivojlantirishni yangi bosqichga ko‘tarish to‘g‘risidagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, № PQ-3160, 28-iyul 2017-yil, Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 29.09.2017 y., 06/17/5194/0032-son).
4. “Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston milliy bog‘i hududida adiblar xiyobonini barpo etish to‘g‘risida” gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori. // Xalq so‘zi, 2017-yil 19-aprel.
5. G.G‘afforova, S.Polvonova. Inson kapitalini rivojlantirishda milliy qadriyatlarning ahamiyati. Academic research in educational sciences, 2 (4) 1514-1523., 2021
6. G.G‘affarova, D.Jumanov Ijtimoiy tarmoqlarning yoshlar ma’naviyatiga ta’siri. Academic research in educational sciences 2 (4), 974-984, 2021

7. Po'latov R. F. (2023). Yosh avlodda ma'naviy axloqiy sifatlarni rivojlantirish. Academic Research in Educational Sciences, 4(1), 316-320.
8. <https://uzlidep.uz/uz/news-of-party/11394>
9. <https://lex.uz/uz/docs/-5841063>
10. <https://strategy.uz/index>.